



SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHI VA AHOLI JON BOSHIGA ISTE'MOL MOLLARI DINAMIKASI TAHLILI

Tovarova Nilufar Ulug'bek qizi

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

O'zbekov Daler Oybek o'g'li

Termiz davlat universiteti Geografiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Surxondaryo viloyatining 2010–2026-yillardagi iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, jami sanoatda tumanlarning ulushi hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mollari ko'rsatkichlari asosida statistik va qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududlar aro iqtisodiy klasterlashuv va ishlab chiqarish quvvatlarining notekis taqsimlanishi natijasida yuzaga kelgan hududiy nomutanosibliklar ochib berilgan. Maqola yakunida agrar tumanlarni sanoatlashtirish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va aholi jon boshiga iste'mol mollarini ko'paytirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, sanoat salohiyati, tumanlar ulushi, aholi jon boshiga, iste'mol mollari, hududiy nomutanosiblik, drayver hududlar, yashirin iqtisodiyot.

АНАЛИЗ ДИНАМИКИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА И ПРОИЗВОДСТВА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ТОВАРОВ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ В РАЙОНЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В статье на основе статистического и сравнительного анализа исследуются тенденции экономического развития Сурхандарьинской области за 2010–2026 годы, включая объемы промышленного производства,



долю районов в общей структуре промышленности и показатели потребительских товаров на душу населения. В ходе исследования выявлены диспропорции в региональном развитии, возникшие в результате межтерриториальной экономической кластеризации и неравномерного распределения производственных мощностей. В заключении сформулированы научно-практические рекомендации по индустриализации аграрных районов, сокращению теневой экономики и увеличению производства потребительских товаров на душу населения.

Ключевые слова: Сурхандарья, промышленный потенциал, доля районов, на душу населения, потребительские товары, региональный дисбаланс, драйверные регионы, теневая экономика.

ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTION DYNAMICS AND CONSUMER GOODS BY POPULATION IN THE DISTRICT OF SURKHANDARYA REGION

Abstract. *The article provides a statistical and comparative analysis of the economic development trends in the Surxondaryo region for the period of 2010–2026, focusing on industrial output volume, the share of districts in the total industrial structure, and per capita consumer goods indicators. The study highlights regional imbalances resulting from cross-territorial economic clustering and uneven distribution of production capacities. Finally, the paper proposes scientific and practical recommendations aimed at industrializing agricultural districts, reducing the shadow economy, and increasing per capita consumer goods production.*

Keywords: *Surxondaryo, industrial potential, share of districts, per capita, consumer goods, regional imbalance, driver regions, shadow economy.*

Adabiyotlarni o'rganish. Mazkur maqola Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2025-yil yanvar-dekabr oylari davomidagi “Surxondaryo



viloyatining statistik axborotnomasi” asosida tahlil qilindi. O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar Q.X. Abdurahmonov, N.M. Maxmudov va Sh.B. Mustafaqulovlar o‘z tadqiqotlarida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining hududlar salohiyatini oshirishdagi rolini o‘rganganlar. Ularning xulosalariga ko‘ra, agrar tumanlarni sanoatlashtirishda mahalliy xomashyoni qayta ishlash drayver omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga iste’mol mollari ishlab chiqarish dinamikasi demografik bosim bilan chambarchas bog‘liq. Surxondaryo viloyatida aholi o‘sinh sur’ati yuqori bo‘lganligi sababli, farovonlik ko‘rsatkichlarini oshirish uchun sanoat o‘shishi demografik ko‘rsatkichlardan ilgarilab ketishi lozimligi iqtisodiy tahlillarda o‘z aksini topgan. Keyingi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarda norasmiy (yashirin) iqtisodiyot ulushini legallashtirish orqali real yalpi mahsulot hajmini aniqlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kirish. Hududiy iqtisodiyotning barqaror o‘shishi bevosita sanoat mahsulotlari hajmining barqaror ortishi, tumanlar aro resurslarning oqilona taqsimlanishi va aholining real turmush darajasini belgilovchi iste’mol mollari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, keyingi yillarda yashirin iqtisodiyot sub’ektlarini legallashtirish va norasmiy sektorni qisqartirish hisobiga real statistik ko‘rsatkichlarning shakllantirilayotgani viloyat iqtisodiyotining haqiqiy salohiyatini baholash imkonini bermoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi Surxondaryo viloyatining uzoq yillik (2010–2026-yillar) statistik ma’lumotlarini tahlil qilish orqali tumanlar kesimidagi iqtisodiy o‘zgarishlar dinamikasini aniqlash, drayver va orqada qolayotgan hududlar o‘rtasidagi farqlarni ochib berish hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mollari hajmini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning ob’ekti sifatida viloyatning barcha tuman va shaharlari olingan bo‘lib, unda sanoat mahsulotlari hajmi, tumanlarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi.



Asosiy qism. Surxondaryo viloyatida 2010-yildan 2026-yilning birinchi choragigacha bo'lgan davrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda juda yuqori sur'atlar bilan o'sib borgan. Xususan, 2010-yilda viloyat bo'yicha jami sanoat mahsuloti hajmi 756.4 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 trilion 910.7 milliard so'mga, 2020-yilda esa bu ko'rsatkich 5 trilion 322.7 milliard so'mga yetdi. Sanoat sohasidagi eng keskin o'sish sur'atlari so'nggi yillarda kuzatildi. Binobarin, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 13 trilion 819.7 milliard so'mga, 2025-yil yakunlariga ko'ra esa 18 trilion 833.1 milliard so'mlik rekord darajaga ko'tarildi. 2026-yilning birinchi choragi (yanvar-mart) yakuni bo'yicha viloyatda 3 trilion 777.2 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilganligi hudud iqtisodiyotining agrar tuzilmadan sanoatlashgan tizimga muvaffaqiyatli o'tayotganidan dalolat beradi.


Viloyat jami sanoatida tumanlarning ulushini tahlil qilish ishlab chiqarish quvvatlarining hududlar aro notekis taqsimlanganini va ma'lum drayver hududlarda to'planganini ko'rsatadi. Uzoq yillar davomida Jarqo'rg'on tumani viloyat sanoatining asosiy o'qi bo'lib kelgan va 2010-yilda jami sanoatning 17.5 % ini ta'minlagan. Garchi keyingi yillarda boshqa hududlarda yangi quvvatlar ishga tushishi bilan uning ulushi bir oz pasaygan bo'lsa-da, tuman yetakchi mavqeini saqlab qolmoqda. Termiz shahri ma'muriy va iqtisodiy markaz sifatida jami sanoatda 10% dan 11.2% gacha bo'lgan barqaror ulushga ega. So'nggi yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hisobiga Sherobod tumani keskin o'sish ko'rsatdi va 2026-yil boshida viloyat jami sanoatining roppa-rosa 10% ini ta'minladi. Shuningdek, chegaraoldi imkoniyatlari va logistika markazlari sababli Termiz tumani eng yuqori sakrashni amalga oshirdi va o'z ulushini 2010-yildagi 2.1 % dan 2025-yilda 9.1 % gacha oshirishga erishdi. Aksincha, Oltinsoy, Boysun va Qiziriq tumanlarida sanoat faolligi uzoq yillardan buyon juda past darajada qolib, ularning ulushi jami sanoatda 1.1 %dan 2.5 %gacha bo'lgan ko'rsatkichni tashkil etmoqda. Bu esa mazkur tumanlarning haligacha chuqur agrar



xarakterda ekanligini anglatadi. Dastlabki shakllanish bosqichidan o'tayotgan yangi Bandixon tumani esa jami sanoatda 2.8 %lik ulushga chiqib oldi. Mahalliy sanoatning aholi ehtiyojlarini qondira olish darajasi bevosita aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari hajmi bilan o'lchanadi. 2023-yil yakuniy statistik ma'lumotlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatida aholi jon boshiga o'rtacha 947.4 ming so'mlik iste'mol mollari to'g'ri kelgan bo'lib, tumanlararo jiddiy farqlar ko'zga tashlanadi.

Iste'mol mollari ishlab chiqarish bo'yicha ham Jarqo'rg'on tumani mutloq yetakchi bo'lib, aholi jon boshiga ko'rsatkich 2 mln. 241.2 ming so'mni tashkil etgan. Bu viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan salkam 2.3 barobar yuqoridir. Keyingi yuqori o'rinlarni yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari barqaror ishlayotgan Sho'rchi tumani (1 mln. 447.0 ming so'm), Termiz shahri (1 mln. 337.3 ming so'm) hamda Qumqo'rg'on tumani (1 mln. 226.4 ming so'm) egallab turibdi. Buning aksiga o'laroq, yirik ishlab chiqarish quvvatlari yetishmaydigan va aholi soni o'sib borayotgan Bandixon tumanida aholi jon boshiga bor-yo'g'i 189.1 ming so'mlik, Muzrabod tumanida esa 504.2 ming so'mlik iste'mol mollari ishlab chiqarilgan. Bu holat chekka va agrar tumanlarda ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish hamda qayta ishlash sexlarini ko'paytirish zaruriyatini yaqqol ko'rsatmoqda.

2026-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatda 2 996 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 743 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,8 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 672 tasi (22,4 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 672 tasi (22,4 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 212 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.




Viloyatda mavjud korxonalar soni

(2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 18 833,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,3 %ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (19 388,7 ming so'm), Termiz shaharda (10 032,8 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 323,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, Termiz tumanida (154,8 %), Bandixon tumanida (113,5 %), Sherobod tumanida (113,3 %), Sho'rchi tumanida (111,1 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-dekabr oylarida

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 trln. 015,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,4 %ni tashkil etgan holda tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 668,0 mlrd so'm (3,5 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 742,0 mlrd so'm (3,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 407,5 mlrd so'm (2,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 35,3 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati sanoat tarkibini tahlil qilganimizda, hududiy nomutanosiblik, ishlab chiqarishda quyi texnologiyalarning ustunligi (74,6 foiz) va kichik biznesning drayverlik o'rni (65,3 foiz) yaqqol ko'rinadi. Mavjud tarmoqlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

✓ paxta-to'qimachilik va meva-sabzavotchilik klasterlarida faqat xomashyoni birlamchi qayta ishlash bilan cheklanmay, tayyor tayyor mahsulot ishlab chiqarish liniyalarini yo'lga qo'yish;



✓ Termiz shahri va yirik tumanlarda innovatsion mahsulotlar hamda asbob-uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari infratuzilmasini raqamlashtirish lozim;

✓ sanoat mahsulotlarining asosiy qismi Termiz tumani, Termiz shahri va Denov hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boysun, Oltinsoy va Uzun kabi tumanlarda ko'rsatkichlar nisbatan past. Boysun tumanida mahalliy mineral xomashyo bazasidan kelib chiqib, qurilish materiallari va tog'-kon sanoati loyihalarini kengaytirish lozim. Oltinsoy va Uzun tumanlarida esa agrosanoat salohiyatidan foydalangan holda yirik muzlatkichli omborxonalar va meva-sabzavotni qayta ishlovchi zamonaviy korxonalar tarmog'ini yaratishni yo'lga qo'yish ;

✓ sanoat darajasi past bo'lgan tumanlarda yangi tashkil etiladigan korxonalar uchun yer, mol-mulk va foyda solig'i bo'yicha tabaqalashtirilgan imtiyozlar tizimini joriy etish lozim;

✓ yirik sanoat korxonalari (masalan, Jarqo'rg'on yoki Sheroboddagi yirik zavodlar) atrofida kichik tadbirkorlarni butlovchi va yordamchi qismlar ishlab chiqarishga jalb etish kerak;

✓ kichik tadbirkorlarga tayyor bino va inshootlarni uzoq muddatli lizing asosida berish hamda ishlab chiqarish uskunalarini xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratishni qo'llash;

✓ Surxondaryoning tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib, sanoat zonalari va yirik korxonalarda quyosh panellari hamda lokal quyosh fotoelektr stansiyalarini o'rnatishni subsidiyalash;

✓ mahalliy mahsulotlarning xorijda raqobatbardosh bo'lishi uchun korxonalarda "ISO" va "Halol" kabi xalqaro muvofiqlik sertifikatlarini joriy etish xarajatlarini davlat tomonidan qisman qoplab berish kabilarni amalga oshirishdan iboratdir.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi yillar davomida keskin o'sib, hudud iqtisodiyoti agrar tuzilmadan



sanoatlashgan tizimga muvaffaqiyatli o‘tib bormoqda. Biroq viloyat iqtisodiyotida quyi texnologiyalarning ustunligi hamda ishlab chiqarish quvvatlarining tumanlar kesimida notekis taqsimlangani (hududiy nomutanosiblik) asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Jarqo‘rg‘on va Termiz kabi drayver hududlar yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bir vaqtda, Boysun, Oltinsoy va Qiziriq kabi tumanlarda sanoat salohiyati va aholi jon boshiga iste’mol mollari ishlab chiqarish ancha past darajadadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q. X. – Inson taraqqiyoti iqtisodiyoti. "O‘zbekiston" nashriyoti, 2022-yil.
2. Maxmudov N. M. – Mintaqaviy iqtisodiyot va hududlarni barqaror rivojlantirish strategiyalari. "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2023-yil.
3. Mustafaqulov Sh. B. – Kichik sanoat va erkin iqtisodiy zonalarning hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi roli. Ilmiy tadqiqotlar markazi nashriyoti, 2021-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi – O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2010–2026-yillar uchun ma’lumotlar to‘plami). Davlat statistika agentligi nashri, 2026-yil. www.stat.uz .
5. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi – Surxondaryo viloyatining statistik axborotnomasi (yanvar-dekabr oylari tahlili). Rasmiy statistik to‘plam, 2025-yil.
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi – Hududlarda yashirin iqtisodiyot ulushini legallashtirish va norasmiy sektorni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Rasmiy tahliliy materiallar, 2024-yil.